



SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Samatov Sanjar Amonovich

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha
ta'lim yo'nalishi magistranti

ARTICLE INFO

Received: 29th May 2023

Accepted: 06th June 2023

Online: 07th June 2023

KEY WORDS

Tabiiy boyliklar, mehnat resurslari, investitsion muhit, qimmatli qog'ozlar bozori, milliy iqtisodiyot, erkin iqtisodiy zonalar, investitsiyalash strategiyasi, markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rnini, viloyatni rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek viloyatda investitsion faoliyatni rivojlantirish uchun takliflar keltirilgan.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz iqtisodiyotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, texnologik modernizatsiyalash, eksport salohiyatimizni oshirish orqali rivojlantirish uchun milliy va xorijiy kapitaldan samarali foydalanish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Geologiya qidiruv ishlariga xususiy investorlarni jalb qilish, YaHMda sanoat hissasi darajasini ko'tarish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini 2,5 barobarga oshirish, qimmatli qog'ozlar bozori sig'imini 35 barobarga oshirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsad qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tabiiy boyliklari, mehnat resurslarining o'ziga xos xususiyatlari asosida shakllangan hududiy farqlar so'nggi yillarda mintaqalarda investitsiyalar oqimini yo'naltirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib oqilona joylashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

Surxondaryo viloyati o'zining qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi, ayniqsa Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo mamlakatlarini bog'lab turuvchi transafg'on transport yo'lagi o'tganligi viloyatning iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradi va investitsiya mablag'larini kelgusida jalb etish uchun qulay muhitni yaratishga undaydi.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasini yuqori darajaga olib chiqishda, aholi farovonligini ta'minlash hamda bandlik darajasini oshirishda investitsion muhit alohida ahamiyatga ega. Shu bois mamlakatimizda ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar, xususan, erkin iqtisodiy zonlardagi tadbirkorlik faoliyatiga oid ishlar izchillik bilan amalga



oshirilmogda. Hozirga qadar yurtimizda 21 ta erkin iqtisodiy zonalar o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Shundan, 2 tasi janubiy mintaqaga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 sentabrdagi "Termiz" 1 erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida gi PF-5540-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»² gi PF-6109-son [Farmoni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» 3gi PQ-4892-son [qarori](#), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 13 martdagi «Termiz» erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 4 gi 148-son [qarori](#), 2021 yil 2 fevraldagi «Termiz xalqaro savdo markazi» erkin savdo zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»⁵gi 47-son qarorlari orqali erkin iqtisodiy zonalarda tadbirkorlik faoliyati uchun ortiqcha rasmiyatchiliklar, hisobotlar va qaydlar, ayrim ma'muriy to'siqlar olib tashlanib, qulay investitsiya muhiti yaratildi.

Shunday bo'lsada, mintaqadagi tabiiy resurs salohiyatidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatidagi tumanlarda foydali qazilma konlarining jumladan, Sherobod va Boysun tumanlaridagi ohak xomashyosi ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilmagan.

Ushbu imkoniyatlar mintaqada hududlaridagi xomashyo salohiyatidan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Biroq mintaqada tabiiy resurs salohiyatidan samarali foydalanilmayotganligini, hududiy dasturlar doirasida mineral xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash, saqlash qadoqlash bo'yicha tashqi investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni ishlab chiqishda mahalliy tashabbuskorlar roli juda pastligini kuzatish mumkin. Ayni paytda aytib o'tish lozimki, mintaqada tumanlarida xususan, Sherobod, Boysun, Jarqo'rg'on tumanlarida ohak xomashyoning to'rtidan uch qismi, silikat va qurilishda ishlatiladigan qumning 90 foizdan ortiqrog'i, bezak toshlarning katta hajmdagi sanoat zahiralari ishlab chiqarishga jalb etilmagan.

Iqtisodiy salohiyatning turli xil miqyosda joylashuvi mintaqada iqtisodiyoti rivojlanishida hududiy tabaqalanishga sabab bo'lgan. Bu hol avvalo, mintaqada hududlari investitsiya salohiyati farqlanishidan dalolat beradi.

Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotning samarali rivojlantirishni ta'minlash maqsadida hududlarning investitsion salohiyatidan kelib chiqqan holda chet el investitsiyalarni jalb etishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 sentyabrdagi "Termiz erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5540-sonli Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6109-son Farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4892-son Qarori

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 13 martdagi «Termiz» erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴ gi 148-son Qarori

⁵ 2021 yil 2 fevraldagi «Termiz xalqaro savdo markazi» erkin savdo zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»⁵gi 47-son Qarori.



Shu nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalarni oqilona yo'naltirishning asosiy mexanizmi sifatida hududiy differentsiatsiyalashgan yondashuv tavsiya etildi. Bu o'rinda mintaqa hududlari investitsiya salohiyatiga asoslanib, ularga xos bo'lgan investitsiyalash strategiyasini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Janubiy mintaqaning iqtisodiy rivojlanishidagi o'ziga xos hududiy xususiyatlar va mavjud muammolarni hisobga olgan holda, investitsiyalarni jalb etishda quyidagi asosiy strategik yo'nalishlar belgilab olindi:

Birinchidan, tumanlar kesimida investitsiya mablag'larini qabul qilishda ixtisoslashtirish strategiyasi janubiy mintaqa hududlarida oziq-ovqat, yengil va og'ir sanoatga ixtisoslashgan ishlab chiqarish quvvatlari ko'p bo'lgan xususiy korxonalarini tashkil etilishiga olib keladi.

Aynan bu joylarga investitsiyalar katta qismini jalb etish va shu asosda ustuvor tarmoqlar doirasida ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish ixtisoslashtirish strategiyasining bosh yo'nalishi hisoblanadi. Bu yerda innovatsion ishlab chiqarishning yuqori darajada mujassamlashuvi, o'z navbatida, boshqa hududlar rivojlanishiga turtki beradi.

Ikkinchidan, konsentratsiya strategiyasi janubiy mintaqada investitsiya oqimini qabul qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, Jarqo'rg'on, Denov, Sho'rchi, Sherobod tumanlarida yuqori darajada sanoat markazlari sifatida mujassamlashuvni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni jadallashtirishni nazarda tutadi.

Ushbu tumanlar iqtisodiyoti, asosan, yoqilg'i mahsulotlaridan neft-gaz, qurilish materiallaridan sement, gips, pardozbop toshlar, gazlama va ip-kalava ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati sababli birmuncha boshqa tumanlardan ajralib turadi. Shunday bo'lsada, ushbu tumanlardagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni diversifikatsiyalash, oraliq mahsulotlardan pirovard mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish raqobatbardoshlikni oshirish talab etiladi.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro aloqalari rivojlanib borayotgan bir vaqtda xomashyo ishlab chiqarishga bog'liqlikdan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor maxsulot ishlab chiqarishga o'tish, maxsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish har qachongidan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni jalb etishning muhim yo'nalishlardan biri diversifikatsiyalash strategiyasidir.

To'rtinchidan, janubiy mintaqadagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashganligi, samaradorligi pastligi, jalb qilingan investitsiyalarning tumanlardagi boshqa soha korxonalarini bilan aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi integratsiya strategiyasini qo'llash lozimligini taqazo etmoqda. Buning uchun yirik korxonalar faoliyatiga kasanachilik orqali kichik biznes sub'ektlari va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni jalb etish evaziga kooperatsiyani kuchaytirish lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 sentyabrdagi "Termiz erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5540-sonli Farmoni.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6109-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi «Afg'oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4892-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 13 martdagi «Termiz» erkin iqtisodiy onasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 148-son Qarori.
5. 2021 yil 2 fevraldagi «Termiz xalqaro savdo markazi» erkin savdo zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 47-son Qarori.
6. www.press-service.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
7. Surxonstat.uz – Surxondaryo viloyati statistika qo'mitasining rasmiy sayti